

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA  
TAYYORLASH BORASIDAGI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK QARASHLARI

Karimova Muxayyo Nazar qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Psixologiya kafedراسi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining oila borasidagi qarashlari, ularni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, o'zbek oilalariga xos bo'lgan qadriyatlar, an'analar haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sharq mutafakkirlari, hikmatli so'zlar, oila, jamiyat, munosabat, oilaviy qadriyatlar, pozitsiya, mustaqil hayot.*

Hozirda O'zbekiston Respublikasi yangi davlatchiligining qaror topishida umumjahon va milliy davlatchilik taraqqiyoti qonuniyatlari uzviy ravishda uyg'unlashdi. Jamiyat hayotining o'zgarishi, ma'lum jihatdan oilaga, uning a'zolariga bog'liq bo'lganligi bois, bu muammoni o'rganish va tahlil etish dolzarb jarayon hisoblanadi. Har bir millat oila va u bilan bog'liq jarayonga alohida e'tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazib kelmoqdalar. Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a'zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflanadi va o'rganiladi. Oiladagi muhitning sog'lomligi avvalo ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma'sul bo'lgan onaga bog'liqdir. Bo'lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning “Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating” degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmli, tarbiyali hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo'lsa, oiladagi muhit ham sog'lom va oila mustahkam, farovon bo'ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma'naviy psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir. Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari,



dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz. Chunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do'stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go'zallik, oqillik, e'tiqod, hurmat-ehtirom, oila sha'ni va g'ururini himoya qilish, tug'ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug'langan. Bu voqelikni biz Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko'rishimiz mumkin. «Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan». Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan. Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Zardushtiylikda ko'p xotinlilik qat'iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga yetgan qiz ota-ona va jamoaning ra'yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, darra kaltaklanish bilan jazolangan. Zardushtiylikning axloq me'yorlari majmuyida ayollar masalasiga ham alohida o'rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo'llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". Yoki "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur" degan qimmatli fikrlarni berib o'tgan.

Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va



yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir".

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritarkan, avvalo oila boshlig'i erining oldidagi mas'uliyatli vazifalarga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino.

Xulosa qilib aytganda talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash hozirgi vaqtdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti, yurt ravnaqi mana shu masalining yechimi bilan bog'liq. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning "Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini-bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating" degan fikrlari bejizga emas.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
2. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
3. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.
4. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
5. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.
6. Akhmedov, B. T. (2021). THE ROLE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN STRENGTHENING FAMILY RELATIONS. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 277-279).



7. Akhmedov, B. T. (2021). The Family as the Basic Unit of Society. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(12), 201-204.

8. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 86-88.

9. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. *O'zbekiston milliy universiteti xabarлари*, 1(6).

10. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10)*.

11. С.Х.Неъматуллаева (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*. (31-33)

12. Каримова, М. (2023). O'zbek oilalarida qizlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik jihatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 37-40. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23473>

13. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.

14. Имонова, М. В. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. *Finland academic research science publisher*, 1148-1151.

15. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.

16. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 74-76.

